UO‘K 373.5.091.33:81’36

TINISH BELGILARINI O‘QITISHGA YONDASHUVLARNING LINGVODIDAKTIK TAHLILI

Z. R. Rayimberdiyeva

Maqolada punktuatsiyaga turli yondashuvlar nazariy va lingvodidaktik jihatdan tahlil qilindi. Til ta’limida tinish belgilarini o‘rgatish jarayoniga me’yoriy yondashuv bilan cheklanish punktuatsiyani majburiy qoida sifatidagina talqin qilgan bo‘lsa, zamonaviy lingvodidaktik konsepsiyalar uni muloqot jarayonining muhim elementi va kommunikativ resurs sifatida ko‘rish imkonini yaratadi. Mazkur tadqiqotda metodologik yondashuvlar qiyosiy va tizimli tahlil asosida o‘rganilib, tinish belgilarini o‘qitishda integrativ lingvodidaktik yondashuv zarurligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: *punktuatsiya, lingvodidaktika, me’yoriy yondashuv, kommunikativ yondashuv, pragmatik yondashuv, kognitiv yondashuv, diskurs, psixolingvistika, semiotika, muloqot.*

В статье рассматриваются различные подходы к пунктуации в теоретическом и лингводидактическом аспектах. Показано, что нормативное толкование ограничивает обучение пунктуации рамками обязательных правил, тогда как современные лингводидактические концепции трактуют её как важный элемент коммуникации. На основе сравнительного и системного анализа обоснована необходимость интегративного лингводидактического подхода к обучению пунктуации.

Ключевые слова: *пунктуация, лингводидактика, нормативный подход, коммуникативный подход, прагматический подход, когнитивный подход, дискурс, психолингвистика, семиотика, коммуникация.*

Kirish

Punktuatsiya masalasi tilshunoslikda kam tadqiq etilgan sohalardan biri hisoblanadi. Buning sabablarini bir qator omillar bilan izohlash mumkin: tinish belgilarining nisbatan kech shakllanganligi, ularning tillararo miqdoriy farqlanishi, lingvistik maqomining aniq belgilanmaganligi hamda ko‘pincha tilshunoslikning turli tarmoqlarida (grafika, orfografiya, prosodika, sintaksis) yordamchi vosita sifatida talqin etilishi shular jumlasidandir.

So‘nggi yillarda lingvistik tadqiqotlarga yangi ilmiy paradigmalarning kirib kelishi til tizimi elementlarini turli nuqtayi nazardan o‘rganishga ehtiyoj tug‘dirdi. Hozirgi bosqichda tilshunoslik taraqqiyoti antropotsentrik yondashuvni talab qilmoqda. Ya’ni til lisoniy shaxs ehtiyojining mahsuli sifatida talqin etilmoqda. Shu asosda antropotsentrik tilshunoslik ta’sirida kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, lingvopoetika, lingvokulturologiya kabi yangi gibrid yo‘nalishlar shakllandi. Ushbu paradigmalarning barchasi tilni funksional va kommunikativ jihatdan tahlil etishga e’tibor qaratadi. Mazkur yondashuv punktuatsiyaga bo‘lgan qarashni ham qayta ko‘rib chiqishga imkon yaratdi. Hozirgi kunda lingvodidaktika sohasida yozma nutqni samarali o‘rgatishda punktuatsiyani kommunikativ-pragmatik jihatdan tushuntirish zarurati kuchaymoqda. Chunki an’anaviy ta’lim jara-

yonida punktuatsiya, asosan, normativ qoida sifatida talqin qilinib, o‘quvchidan mavjud qoidalarga amal qilish talab etiladi. Bu esa tinish belgilarini faqat savodxonlik mezoni sifatida ko‘rsatadi. Natijada punktuatsiyaning matnni shakllantirish, ohangni belgilash va ma’no qatlamlarini ochib berish kabi muhim kommunikativ xususiyatlari e’tibordan chetda qolmoqda. Shu bois ushbu maqolada punktuatsiyaga oid turli yondashuvlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi va ularning lingvodidaktik imkoniyatlari yoritiladi.

Materiallar va usullar

Tadqiqot muammosini yoritish va punktuatsiyaga oid o‘zbek va xorijiy tilshunoslarning qarashlarini tahlil qilishda nazariy tahliliy metodga asoslanildi. Punktuatsiyaga oid mavjud yondashuvlar qiyosiy metod asosida o‘zaro taqqoslab o‘rganildi. Sistemali yondashuv orqali punktuatsiya faqatgina qoidalar to‘plami emas, balki muloqot, kognitsiya, diskurs va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qilindi. Shuningdek, lingvodidaktik asosga tayanilgan holda tinish belgilari va ularga yondashuvlarning ta’lim jarayonidagi ahamiyati ochib berildi.

Natijalar

Mavjud ilmiy manbalarda tinish belgilarining paydo bo‘lishi nutqning birlamchi shakli sanaluvchi og‘zaki nutqning ohangini yozma nutqqa ko‘chirish, matnni qismlarga ajratish va keyinchalik mazmunni to‘g‘ri interpretatsiya qilish ehtiyoji bilan bog‘lanadi. Bu esa, o‘z navbatida, aksariyat ilmiy manbalarda punktuatsiya asoslarining uch xil yondashuvga tayanib belgilanishiga sabab bo‘lgan [1. B. 34; 2. B.11]:

1. Intonatsion asos – tinish belgilarining qo‘llanishini ohang bilan bog‘lash.

2. Grammatik asos – tinish belgilarining qo‘llanishini gap qurilishi bilan bog‘lash.

3. Semantik asos – tinish belgilarining qo‘llanishini mazmun bilan bog‘lash.

Uzoq yillar davomida punktuatsiyaga tilshunoslikda ham, til ta’limida ham yuqorida qayd etilgan uch asos doirasida yondashildi. Biroq yangilangan ilmiy va ta’lim paradigmalari ta’sirida yangicha qarashlar ham yuzaga kela boshladi. Quyida mavjud yondashuvlar batafsil tahlil qilinadi.

Me’yoriy yondashuv. Ilmiy manbalarda me’yor tushunchasi “mutaxassislar tomonidan qabul qilingan, ma’qullangan va til egalariga tushunarli bo‘lgan til birliklarining nutq jarayonida qo‘llanish holati va imkoniyati” sifatida talqin qilinadi [3. B. 3]. O‘zbek adabiy tili tayanadigan me’yorlar qatorida punktuatsion me’yorlar alohida e’tirof etiladi [4. B. 75]. Olimlar tomonidan ta’kidlanganidek, me’yoriy yondashuv an’anaviy ta’lim amaliyotida eng keng tarqalgan yo‘nalishdir [5. B. 39; 6. B. 219]. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchini yozma nutqda grammatik qoidalarga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat. Ona tili darsliklarida berilgan mashqlarda tinish belgilarining qo‘llanishi qat’iy qoidalarga tayanadi: *vergul qayerda qo‘yilishi kerak*, *nuqtali vergul qaysi vaziyatda ishlatiladi*, *qo‘shtirnoqning ishlatilishi qanday hollarda talab etiladi* va hokazo. Bu usulning ahamiyatli jihati shundaki, u o‘quvchilarda yozuv intizomini shakllantiradi. O‘qituvchi uchun ham nazorat qilish va baholash osonlashadi, ya’ni punktuatsion me’yorga mos kelish-kelmasligiga ko‘ra baholaydi. Biroq aynan mana shu jihatning o‘zi kamchilikka ham aylanadi: o‘quvchilar punktuatsiyani muloqot vositasi emas, balki faqat baho olish uchun to‘g‘ri bajarilishi shart bo‘lgan majburiyat, savodxonlik mezoni sifatida qabul qiladilar. Natijada ular tinish belgilarini qo‘llashni kommunikativ ehtiyoj sifatida emas, balki qoidaviy majburiyat asosida o‘zlashtiradilar. Bu esa ongli va maqsadli o‘rganishga to‘sqinlik qiladi.

*Funksional yondashuv*da punktuatsiyaga faqat qoida, me’yor sifatida emas, balki til tizimining ichki tuzilishida bajaradigan vazifasi

nuqtayi nazaridan qaraladi. Chunki bu turdagi belgilar sintaktik birliklarning chegarasini ko‘rsatadi, gap bo‘laklarini ajratadi va matnda izchillikni ta’minlaydi. Shunga binoan grammatikaning yozuvdagi yordamchi, ammo muhim bo‘g‘ini sifatida talqin qilinadi. Funksional qarash doirasida punktuatsiyaning funksional-sintaktik, funksional-semantik va funksional-stilistik tomonlari o‘rganiladi. Bunday qamrov me’yoriy yondashuvni to‘ldiradi, negaki o‘quvchi belgi qachon va qayerda ishlatilishini nafaqat yodlab oladi, balki uning sintaktik, semantik va uslubiy asoslarini ham anglaydi. Funksional-sintaktik jihat Primus, Gallman, Shvarskopf, Penkovskiy, Sh.Shoabdurahmonov kabi olimlar tomonidan e’tirof etilgan va atroflicha o‘rganilgan. Ayrim tadqiqotchilar tinish belgilarining muhim vazifalaridan biri sifatida ma`no shakllantirishni qayd etadilar. Jumladan, L.Yang punktuatsiyani uch aspektda: grafologiya, grammatika va semantika doirasida ko‘rib chiqadi va aksariyat belgilarning ikki tomonlama vazifa bajarishini, ya’ni sintaktik birliklarning chegarasini ko‘rsatish bilan birga semantik marker vazifasini ham bajarishini ta’kidlaydi [7]. Funksional-stilistik jihat esa ayrim tinish belgilarining muayyan nutq uslubiga moyilligi va ekspressivlikni ifodalashi bilan izohlanadi [8. B. 5]. Biroq funksional yondashuvning ham cheklangan jihatlari mavjud. Xususan, tadqiqotchi I.E.Kimning fikricha, tinish belgilarini faqat segmentatsiya vositasi sifatida qabul qilish ularni sintaktik yordamchi vositaga aylantirib qo‘yadi [9. B. 19]. Natijada punktuatsiyaning kommunikativ ahamiyati to‘liq ochilmaydi. Bunday yondashuvda o‘quvchi belgi nima sababdan qo‘yilganini grammatik va semantik jihatdan anglasa-da, uning qanday kommunikativ maqsad bilan qo‘llanilganiga yetarlicha e’tibor qaratmaydi.

Kommunikativ yondashuv tarafdorlari punktuatsiyani til tizimining faqat shakliy jihati emas, balki muloqot samaradorligini ta’minlovchi vosita sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, 2000-yildan keyingi tadqiqotlarda mazkur yondashuv yanada keng rivojlandi [5; 10; 11]. Jumladan, L.G.Vedeninaning tadqiqotlarida tinish belgilari semantik va kommunikativ funksiyalarga ega ikki tomonlama birlik sifatida tavsiflanadi [12. B. 65]. Yozma nutqning asosiy xususiyati shundaki, u og‘zaki nutqdagi intonatsiya, pauza va ohangni o‘zida aks ettira olmaydi. Shu bo‘shliqni to‘ldiradigan, fikrni o‘quvchiga ravon yetkazish orqali muloqotning yozuvchi kommunikativ maqsadiga mos holda amalga oshishiga yordam beradigan asosiy grafik vosita tinish belgilaridir. Masalan, oddiy vergul yoki nuqta gapdagi pauzani ko‘rsatadi, undov belgisi muallifning hissiyotini ifodalaydi, ko‘p nuqta esa matnda tugallanmagan fikrni yoki shubha kayfiyatini aks ettiradi. Shu tariqa punktuatsiya o‘quvchiga qanday ohangda o‘qish va qanday kayfiyatda qabul qilish kerakligini ko‘rsatadigan interpretatsion marker vazifasini bajaradi. L.T.Grigoryanning ta’kidlashicha, “Punktuatsiyani o‘qitish – bu kommunikativ faoliyatni o‘rgatish jarayonidir. Ushbu jarayonda o‘quvchi punktuatsiyani muloqot vositasi sifatida o‘rganadi” [13. B. 3]. Demak, bunday yondashuvning lingvodidaktik ahamiyati shundaki, tinish belgilarini o‘rgatishda faqat qoida emas, balki fikrni adekvat yetkazish, nutq ohangini yozma nutqda aks ettirish, o‘quvchining yozuvchini tushunishiga yordam berish kabi vazifalar ham alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Bu esa o‘quvchiga punktuatsiyani majburiyat emas, balki yozma nutqda suhbatdosh bilan aloqa o‘rnatish vositasi, kommunikativ ehtiyoj va imkoniyat sifatida ko‘rishga yordam beradi.

Pragmatik yondashuv kommunikativ yondashuvga yaqin, biroq diqqat markaziga muallifning niyati va o‘quvchida yuzaga keladigan ta’sirni qo‘yadi. Ko‘rinadiki, tinish belgilarining mohiyati yanada kengroq talqin qilinadi: asosiy urg‘u belgining muallif maqsadini amalga oshirish va o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga qaratiladi. Ya’ni punktuatsiya nafaqat grammatik, semantik va prosodik marker, balki matnda qanday kayfiyat, qanday niyat yashiringanini ham ifodalay oladigan pragmatik imkoniyat sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, undov belgisi nutqiy vaziyat talabiga ko‘ra ha-

yajonnigina emas, balki muallifning chaqirig‘ini, talabini, e’tirozini yoki hayratini ham bildirishi mumkin [14. B. 66–72]. Ko‘p nuqta o‘quvchini fikrlashga chorlashi, so‘roq belgisi esa muallif bilan muloqotga kirishishga undashi mumkin. Shu ma’noda punktuatsiya yozuvchi uchun muayyan kontekstda kommunikativ samaradorlikka erishishni ta’minlovchi resurs bo‘lib xizmat qiladi. Didaktik jihatdan bu yondashuv shuni anglatadiki, o‘quvchilar belgilarni nafaqat to‘g‘ri qo‘yishni, balki ular orqali ta’sirdorlikni boshqarishni ham o‘rganadilar. O‘qituvchi matnlarni tahlil qilar ekan, o‘quvchilardan nafaqat qaysi qoida asosida belgi qo‘yilganini, balki “muallif nima demoqchi bo‘lgan?”, “bu belgi ta’sirida o‘quvchi o‘zini qanday his qiladi?” kabi savollarni ham berishi mumkin. Bu esa punktuatsiyaning emotsional va pragmatik qirralarini ochib beradi.

Psixolingvistik yondashuv. “Punktuatsiya psixologiyasi” (“The psychology of punctuation”) 1930–1940-yillarda AQShda paydo bo‘lgan yo‘nalish bo‘lib, Reychel Solsberi va Edvard Torndayk kabi olimlar bu sohaga hissa qo‘shgan [15. B. 531–533]. Mazkur yondashuvda punktuatsiya masalasi o‘quvchilarning idrok jarayonlari, tafakkuri va psixologik rivojlanishi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Yozma nutqda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish ko‘nikmasi oddiy yodlash natijasida emas, balki bolaning nutqiy va kognitiv rivojlanishi fonida shakllanadigan ko‘nikma sifatida talqin qilinadi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari gapni tugatishda nuqta qo‘yishni oson o‘zlashtiradilar, chunki ularning nutqiy tajribasida “gap tugashi” tabiiy hodisa sifatida mavjud. Ammo murakkab tuzilmali gaplarda vergulni to‘g‘ri qo‘yish ko‘proq mantiqiy tahlil va sintaktik tuzilmalarni anglashni talab qiladi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan, punktuatsiyani o‘zlashtirishda xatolarga yo‘l qo‘yilishi ham tabiiydir. O‘quvchi ba’zan vergulni tushirib qoldiradi yoki ortiqcha belgi qo‘yadi, chunki u matnni o‘qishda intonatsiyaga tayanadi, ammo ohang yozuvdagi belgilar bilan har doim ham mos kelavermaydi. Shu bois bu yondashuvda asosiy e’tibor o‘quvchilarning ichki nutqini rivojlantirishga, o‘qish va yozish jarayonidagi psixologik mexanizmlarni hisobga olishga qaratiladi. Aynan mana shu yo‘nalishda maxsus tadqiqot olib borgan G.G.Granikning 1970-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, punktuatsion ko‘nikma yozuvchining ham uzoq muddatli, ham ishchi (operativ) xotirasi faoliyati bilan bog‘liqdir [16. B. 15–19]. Uzoq muddatli xotirada tinish belgisining qo‘yilishi yoki qo‘yilmasligini belgilovchi sintaktik bloklar (masalan, murakkablashgan sodda gaplar, qo‘shma gaplar, murakkab qo‘shma gaplar) saqlanadi. Operativ xotira esa axborot mazmuni va sintaktik strukturani ushlab turish hamda ularni oldindan belgilab borishni ta’minlaydi. Bu esa matnni shakllantirish jarayonida zarur tinish belgilarini qo‘llash imkonini beradi. Psixolingvistik yondashuvning ta’limiy ahamiyati shundaki, o‘qituvchi o‘quvchilarning xatolarini faqat “qoidani bilmaslik” bilangina izohlamasdan, balki ularning tafakkur jarayoni va psixologik rivojlanishi bilan bog‘liq holda tushunishga harakat qiladi. Natijada ta’lim jarayoni o‘quvchilarning individual rivojlanishiga moslashadi.

*Semiotik yondashuv*da zamonaviy lingvistik paradigmalar punktuatsiyani faqat intonatsion yoki sintaktik belgilar tizimi emas, balki yozma nutqning mustaqil belgilar tizimi sifatida baholaydi. J.Raultning e’tirofiga ko‘ra, haqiqiy punktuatsiya tadqiqotlari fonotsentrizm (tinish belgilariga og‘zaki nutqdagi ohangning yozma nutqdagi ifoda sifatida qarash)dan bosqichma-bosqich voz kechish jarayonida shakllangan [17. B.11]. So‘nggi yillarda esa punktuatsiya masalalari tobora ko‘proq semiotik nuqtayi nazardan talqin qilinmoqda [18, 19]. Yozuv – bu alohida semiotik makon, unda har bir belgi o‘z o‘rniga ega va ma’no hosil qilishda muhim vazifa bajaradi. Jumladan, tinish belgilari ham tarixiy taraqqiyot davomida grammatik vazifadan semantik qiymatga, undan esa semiotik belgi maqomiga ko‘tarilgan. Tinish belgilarini bu nuqtayi nazardan baholash ularni grammatik qoida va punktuatsion me’yor darajasidan yuqoriga olib chiqadi: ular ramz, ishora va aloqaviy signallar

sifatida talqin qilinadi. Punktuatsiyaga faqatgina texnik belgilar sirasida emas, balki yozma nutqni shakllantiruvchi va uni o‘qish jarayonini boshqaruvchi semiotik tizim sifatida qaraladi [20. B. 29]. Didaktik nuqtayi nazardan semiotik yondashuv o‘quvchiga tinish belgilarini yozuvdagi oddiy qoidaviy element, savodxonlik ko‘rsatkichi emas, balki “matnning ramziy tizimi” sifatida ko‘rishga yordam beradi. Bu esa matnga yanada chuqurroq yondashish, belgilar orqali yashirin qatlamlarni sezish va talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Diskursiv yondashuv punktuatsiyani alohida gap doirasida emas, balki butun matn va diskurs darajasida ko‘rib chiqadi. Adresant (yozuvchi) tinish belgilarini tanlash orqali adresat (o‘quvchi) bilan muloqotni boshqaradi, matnning umumiy ritmini belgilaydi va diskursning uslubiy xususiyatlarini shakllantiradi. Masalan, ilmiy maqolada tinish belgilarining neytral qo‘llanilishi matnni qat’iy, mantiqiy va obyektiv ko‘rsatadi. Ammo publitsistik maqolada undov va so‘roq belgilarining faol ishlatilishi muloqotni jonli, munozarali va o‘quvchiga bevosita murojaat qilgandek vaziyatni yuzaga keltiradi. Demak, belgilar diskursning janr xususiyatini ham ifodalaydi. Bu xususiyatga N.Valgina ham e’tibor qaratib, tinish belgilarining diskurs tipiga mos holda qo‘llanishi tabiiy jarayon ekanligini aytadi [5. B. 255–256]. Tadqiqotchi M.Nashxoyeva ta’kidlaganidek, badiiy va mediadiskursda tinish belgilarining yangi, ijodiy qo‘llanilishi kuzatiladi: ayrim belgilarni faollashtirish, ularning joylashuvini o‘zgartirish, ammo funksiyalarini saqlab qolish, shuningdek, boshqa paragrafemik vositalar yordamida alohida bo‘laklarni birlashtirish orqali matnning yaxlit ko‘rinishini yaratish kabi [21. B. 322]. Aslida zamonaviy kommunikativ makon, xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlar, punktuatsiyaning diskursiv jihatlarini yanada murakkablashtirmoqda. D.Kristal bu jarayonni ikki turdagi (standart va nostandart) “punktuatsion dunyo”ning birgalikda voqelanishi sifatida ta’riflaydi [22. B. 329]. Onlayn muloqotda punktuatsiya belgilarining kamayishi, ularning emotsional yuklamalarni ifodalashdagi faoliyati hamda emotikonlar (hisbelgi) bilan uyg‘unlashuvi ham diskursiv o‘zgarishlarning yorqin namunasidir [21. B.326]. Bu kabi holatlar raqamli kommunikatsiyada tinish belgilarining diskursiv vazifalari an’anaviy grammatik chegaralardan chiqib, yangi semiotik imkoniyatlarga ega bo‘layotganini ko‘rsatadi. Didaktik jihatdan qaralganda, diskursiv yondashuv o‘quvchilarni tinish belgisini matn tuzilishi va uslubi bilan bog‘lashga o‘rgatadi, ya’ni punktuatsiyani qoidalarga asoslangan texnik ko‘nikma sifatida emas, balki mazmun yaratish, matn strukturasini tashkil qilish va kommunikativ maqsadlarga erishish vositasi sifatida ongli qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Yuqoridagi yondashuvlar tahliliga asoslangan holda aytish mumkinki, punktuatsiya faqat savodxonlik mezonigina emas, balki nutqni mazmunan to‘liq va muloqot uchun samarali qilishga xizmat qiluvchi integrativ vosita sanaladi.

Muhokama

Tizimli tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, punktuatsiya tizimi o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida intonatsion ibtidodan grammatik va kommunikativ asosga o‘tib, jamiyatning yozuv va muloqot madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda intonatsion asos ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, o‘rta asrlarda grammatik-sintaktik bo‘linish kuchaygan, keyinchalik normativ tizim yaratilgan. Zamonaviy bosqichda esa punktuatsiya kommunikativ, pragmatik va diskursiv vazifalarni ham o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali hodisaga aylandi. Til ta’limi amaliyotida esa bu jihatlarning har biri o‘ziga xos lingvodidaktik vazifa bajaradi. Quyidagi jadvalda bu haqda umumiy ma’lumotlar jamlangan:

Yondashuv	Asosiy xususiyatlari	Lingvodidaktik vazifasi	Rivojlantiriladigan kompetensiya
Me’yoriy yondashuv	Qoidalarga, grammatik me’yorga tayanadi.	To‘g‘ri yozuv malakasini shakllantirish	Lingvistik kompetensiya
Funksional yondashuv	Belgilarni gap va matndagi vazifasi asosida tushuntadi	Matn strukturasi va izchilligini anglatish	Lingvistik kompetensiya
Kommunikativ yondashuv	Belgilarni muloqot vositasi sifatida talqin qiladi.	O‘quvchiga yozma nutqda fikrni aniq va samarali ifodalashni o‘rgatish	Nutqiy kompetensiya
Pragmatik yondashuv	Nutqiy vaziyatga, adresant va adresat munosabatiga asoslanadi.	O‘quvchini kontekstga mos tinish belgisini tanlashga o‘rgatish	Nutqiy kompetensiya
Psixolingvistik yondashuv	Idrok, tafakkur va kognitiv jarayonlarga e’tibor qaratadi.	Punktuatsiyani ongli va oson o‘zlashtirishga yordamlashish	Lingvistik va nutqiy kompetensiya
Semiotik yondashuv	Belgilarni ma’no va belgilash tizimi sifatida ko‘radi.	O‘quvchiga belgilarni ramziy va mantiqiy tushunishni o‘rgatish	Lingvistik va metalingvistik kompetensiya
Diskursiv yondashuv	Belgilarni matn va diskurs darajasida tahlil qiladi.	Matnda uslubiy va diskursiv uyg‘unlikni ta’minlash	Nutqiy kompetensiya

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har bir yondashuv o‘quvchilarda turli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, me’yoriy va funksional yondashuvlar savodxonlikni shakllantirishga xizmat qilsa, kommunikativ va pragmatik yondashuvlar o‘quvchini yozma nutqni aniq, ravon va ta’sirli ifodalashga yo‘naltiradi. Psixolingvistik va semiotik yondashuvlar punktuatsiyani idrok va tafakkur jarayonlari bilan bog`liq holda hamda belgilar tizimi sifatida tushuntirish imkonini beradi. Diskursiv yondashuv esa belgilarni matn va janr doirasida talqin qilib, yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni boshqaruvchi vosita sifatida ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, turli yondashuvlarni integratsiyalash punktuatsiya ta’limida lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni uyg‘un shakllantirish va rivojlantirishga imkon yaratadi.

Bizning kuzatuvlarimiz ham shuni ko‘rsatadiki, amaldagi ona tili darsliklarida punktuatsiya ko‘pincha normativ qoidalar doirasida talqin qilinadi. Natijada o‘quvchilar belgilarni faqat yozma nutqning texnik talabi sifatida yuzaki qabul qiladilar, ularning kommunikativ va pragmatik imkoniyatlari esa to‘liq ochilmay qoladi. Shuning uchun punktuatsiyani o‘qitishda matn tahliliga, belgilar orqali ohang, emotsiya va muallif niyatini ochishga ko‘proq e’tibor qaratish zarur. Buning uchun amaliyotda bir qator metodik yechimlarni tatbiq etish muhimdir. Avvalo, ona tili dastur va darsliklarida punktuatsiyani faqat me’yoriy qoida sifatida emas, balki kommunikativ, pragmatik va semiotik jihatdan ham talqin etish lozim. Bunda mashqlarni tinish belgilarini qo‘yish shartlarini tushuntirish bilan cheklab qo‘ymasdan, ularning ohang, emotsiya va ma’no hosil qilishdagi vazifasini ham yoritishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim jarayonida kommunikativ mashqlarning ulushi ko‘paytirilsa, o‘quvchilar punktuatsiyaning muloqot samaradorligini ta’minlashdagi ahamiyatini tushunib oladilar. Masalan, bir xil

matnni belgilar bilan va belgilarsiz o‘qitib, mazmundagi farqlarni tahlil qilish, shuningdek, dialogik matnlarda belgilar yordamida intonatsiyani jonlantirish orqali o‘quvchilarda kommunikativ sezgirlikni rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, pragmatik yondashuv asosida mashqlar tashkil etish ham foydalidir. Masalan, belgilar orqali muallif qanday niyatni ifodalaganini va o‘quvchida qanday kayfiyat, ta`sir uyg‘otishini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar o‘quvchilarda matnga nisbatan estetik va emotsional munosabatni shakllantiradi. Shuningdek, psixolingvistik jihatlarni hisobga olish ham zarur, ya’ni punktuatsion minimumni belgilashda ta’lim oluvchilarning kognitiv rivojlanish darajasini va mavjud grammatik bilim darajasini moslashtirish kutilgan natijani beradi. Shu bilan birga, semiotik va diskursiv yondashuvlar asosida matn tahlilini tashkil etish ham alohida ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilar badiiy va publitsistik matnlarda tinish belgilarini ramziy va uslubiy ko‘rsatkich sifatida talqin qilish, belgilar orqali matnning ohangi, janri va uslubini aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Yana bir muhim jihatni qayd etish joizki, punktuatsiya me’yorlarini dastur va darsliklarga kiritishda didaktik transpozitsiya jarayonini hisobga olish zarur. Ya’ni ilmiy-lingvistik bilimlar o‘quvchilarga bevosita uzatilmaydi, balki didaktik qayta ishlash orqali ularning yosh xususiyatlari, bilish darajasi va o‘quv ehtiyojlariga moslashtiriladi. Masalan, murakkab ilmiy tushunchalar soddalashtirilgan izohlar, bosqichma-bosqich mashqlar va vizual misollar orqali berilishi mumkin. Bu esa punktuatsiya bo‘yicha nazariy bilimlarning amaliy o‘quv faoliyatiga samarali ko‘chirilishini ta’minlaydi. Sanab o‘tilgan tavsiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, tajriba almashish seminarlarini tashkil etish, dastur va darsliklarni qayta ko‘rib chiqishda integrativ yondashuvga asoslangan mashq turlarini kiritish muhimdir. Bu esa punktuatsiya ta’limini nafaqat nazariy qoidalar yig‘indisi, balki yozma muloqot samaradorligini ta’minlaydigan amaliy vosita sifatida qarash imkonini beradi.

Shu o‘rinda olib borilgan tadqiqotning ayrim cheklovlarini ham qayd etish lozim. Mazkur maqola, asosan, nazariy tahlil va mavjud ilmiy-metodik manbalarni qiyosiy o‘rganish asosida yozilgan bo‘lib, empirik dalillar keng qamrab olinmagan. Natijada ayrim xulosalar umumiy nazariy va tavsiyaviy xarakterga ega. Kelgusida esa ushbu masalani yanada chuqurroq o‘rganish uchun eksperimental metodlardan, so‘rovnomalardan va o‘quv jarayonidan olingan real yozma materiallardan foydalanish muhimdir. Bu yondashuv maqolada ilgari surilgan integrativ lingvodidaktik qarashlarning samaradorligini amaliy jihatdan ham tasdiqlash imkonini beradi.

Xulosalar

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, tinish belgilarini o‘qitishda yagona yondashuv yetarli emas. Maqolada turli yondashuvlar tahlil qilinar ekan, an’anaviy punktuatsiya ta’limida normativ yondashuvning ustuvorligi ko‘rsatildi. Bu esa o‘quvchilar ongida tinish belgilarini faqatgina majburiy qoida va savodxonlik mezoni sifatida qabul qilishga olib keladi. Me’yoriy va funksional yondashuvlar o‘quvchilarda savodxonlikni shakllantirsa, kommunikativ, pragmatik va diskursiv yondashuvlar ularni muloqot vositasi sifatida ongli va samarali qo‘llashga yo‘naltiradi. Psixolingvistik va semiotik yondashuvlar esa punktuatsiyaning mohiyatini chuqurroq ochib beradi. Lingvodidaktika nuqtayi nazaridan bu yondashuvlarning integratsiyasi punktuatsiyani o‘qitishda eng samarali natijaga olib keladi. Demak, punktuatsiyani o‘qitishda integrativ lingvodidaktik yondashuvni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ona tili ta’limining dolzarb vazifalaridan biridir. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat savodxonlikni, balki matnni ongli idrok etish, uni interpretatsiya qilish va yozma muloqotda faol ishtirok etish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. *Назаров К*. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 124 б.

2. *Bahriddinova B*. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 64 b.

3. O'zbek tili me'yorlari (punktuatsiya). / Tuzuvchilar: Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkmov N., Andaniyozova D. – Toshkent: Zamin nashr. – 232 b.

4. *Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М*. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан,1983. – 151 б.

5. *Валгина Н.С*. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – Москва: Высшая школа, 2004. – 259 с.

6. *Розенталь Д. Э., Голуб Б.И*. Русский язык. Орфография и пунктуация. – Москва: Айрис-Пресс, 2003. – 384 с.

7. *Yang L.* The grammar and semantics of punctuation - a functional approach (Order No. 10454399). Available from ProQuest Dissertations & Theses Global. – 2009. (1869148651). [Online]. URL: https://www.proquest.com/ dissertations-theses/grammar-semantics-punctuation-functional-approach/docview/ 1869148651/se-2 (Date of Access: 18.11.2023)

8. *Karimov S.A*. O'zbek tilida tinish belgilari stilistikasi. Monografiya. – Samarqand: Fan bulog'i, 2022. – 160 b.

9. *Ким И.Е*. Теория русской пунктуации: пространство знака и пространство текста. – Новосибирск: Институт филологии СО РАН, 2019. – 120 с.

10. *Тискова О.В.* Русская пунктуация как коммуникативный фено мен (к постановке проблемы) // Естественная письменная русская речь: исследовательский и образовательный аспекты. Материалы конференции. –Барнаул: Изд-во АлтГУ, 2002. Ч. 1. – С. 288–294.

11. *Голев Н.Д*. Коммуникативные проблемы русской пунктуации / Язык и история: Международный сборник научных трудов. – Глазов: ГПИ, 2005. – С. 228 –237

12. *Vedenina L.G.* La triple fonction de la ponctuation dans la phrase : syntaxique, communicative et sémantique. In: Langue française, n 45, 1980. La ponctuation. – Pp. 60–66. [Online]. URL: https://doi.org/10.3406/lfr.1980.5265 (Date of Access: 08.01.2024)

13. *Григорян Л.Т.* Обучение пунктуации в средней школе (Методическое исследование). – Москва: Педагогика, 1982. – 120 с.

14. *Petit A.* The Stylish Semicolon: Teaching Punctuation as Rhetorical Choice. The English Journal. – 2003. 92(3). 66–72.

15. Сигал К.Я. Истоки психолингвистического подхода к пунктуации // Вестник Удмуртского университета. Серия История и филология. – 2022. – Т. 32. Вып. 3. – С. 529–536.

16. *Граник Г.Г.* Психологические принципы построения школьного курса синтаксиса и пунктуации русского языка: автореф. дис. … докт. психол. наук. – Москва: НИИ общей и педагогической психологии АПН СССР, 1975. – 47 с.

17. Rault J. La ponctuation: problématiques linguistiques // Le français aujourd'hui. – 2014. – № 187(4). – Pp. 9–18.

18. *Ким И.Е.* Пунктуационные знаки в письменной форме совре менного русского языка: означающее и означаемое // И. А. Бодуэн де Куртенэ. Ученый. Учитель. Личность: Доклады науч.-практич. конф. «Лингвистическое наследие И. А. Бодуэна де Куртенэ на ис ходе XX столетия» / Краснояр. ун-т. Красноярск, 2000. – С. 95–104

19. *Ким И.Е*. Современная русская пунктуация как знаковая система // Критика и семиотика. – 2019. – №2. – С.302–318.

20. *Arrivé M.* Modestes remarques sur le statut sémiotique du signe de ponctuation // La ponctuation à l'aube du XXIe siècle : théories et pratiques. – Paris: Honoré Champion, 2004. – Pp. 19–44.

21. *Нашхоева М.Р.* Взаимодействие пунктуационных знаков и эмотиконов в текстах форумов // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. Серия: Филология и искусствоведение. – 2011. – № 12. – С. 321–327

22. *Crystal D*. Making a point. The pernickety story of English punctuation. – London: Profile books, 2016. – 378 p.

LINGUODIDACTIC ANALYSIS OF APPROACHES TO TEACHING PUNCTUATION

Zulfiya R. Rayimberdiyeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Research. 2025. 2(86). 22-32.

[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, 170100, str. Dostlik, 4. (Uzbekistan). E-mail: andupi@edu.uz

Key words: punctuation, linguodidactics, normative approach, communicative approach, pragmatic approach, cognitive approach, discourse, psycholinguistics, semiotics, communication.

The article is devoted to the linguodidactic analysis of approaches to teaching punctuation. The main objective of the study is demonstrated that limiting punctuation instruction to normative rules and literacy standards is insufficient. Instead, it is essential to examine various approaches comparatively and substantiate the necessity of an integrative linguodidactic model. Within this framework, punctuation is considered not only as a set of formal rules but also as a communicative resource that supports meaning, structure, and interaction in written discourse.

The research materials include theoretical works of Uzbek, Russian, and foreign linguists, as well as teaching manuals and textbooks on punctuation. The methodological basis relies on theoretical analysis, comparative methods, and systemic approaches. These methods allowed for a critical evaluation of existing conceptions, highlighting both their didactic potential and their limitations in the teaching process.

The findings reveal that punctuation, in its historical evolution, has shifted from an intonational basis to grammatical, communicative, and pragmatic foundations. While the normative approach provides discipline and accuracy in writing, it often reduces punctuation to a compulsory set of rules, thus overshadowing its communicative role. The functional approach explains punctuation as part of sentence and text structure; the communicative approach interprets it as a means of maintaining written interaction; and the pragmatic approach emphasizes the author's intention and its impact on the reader. Meanwhile, psycholinguistic research links punctuation acquisition to perception, cognition, and developmental processes, while the semiotic perspective treats punctuation as a symbolic system. The discourse approach, in turn, demonstrates how punctuation shapes textual rhythm, genre, and stylistic coherence.

The discussion is suggested that teaching punctuation solely as a normative requirement

leads learners to view it as a technical obligation rather than a communicative necessity. An integrative linguodidactic approach, combining normative, functional, communicative, pragmatic, psycholinguistic, semiotic, and discourse perspectives, provides a more balanced solution. Such integration not only enhances students' linguistic competence but also fosters communicative and interpretative skills, enabling them to perceive punctuation as a tool for constructing meaning, expressing emotions, and ensuring textual cohesion.

In conclusion, the article is substantiated that the most effective way to teach punctuation is through an integrative linguodidactic framework. This approach allows learners to master not only the technical accuracy of punctuation but also its broader role in text interpretation, stylistic variation, and communicative effectiveness. By adopting this model, language education can develop students who are not only literate but also capable of consciously managing written communication as an interactive and meaning-making process.

References:

1. Nazarov, K. (1976). *O'zbek tili punktuatsiyasi* [Uzbek punctuation]. Tashkent: O'qituvchi.

2. Bahriddinova, B. (2015). *Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari* [Fundamentals of modern Uzbek punctuation]. Tashkent: Akademnashr.

3. Mahmudov, N., Madvaliev, A., Mahkmov, N., & Andaniyozova, D. (Comps.) (n.d.). *O'zbek tili me'yorlari* (*punktuatsiya*) [Norms of the Uzbek language (punctuation)]. Tashkent: Zamin nashr.

4. Begmatov, E., Boboeva, A., Asomidinova, M. (1983). *Adabiy norma va nutq madaniyati* [Literary norm and speech culture]. Tashkent: Fan.

5. Valgina, N.S. (2004). *Aktual'nye problemy sovremennoj russkoj punktuacii* [Current issues of modern Russian punctuation]. Moscow: Vysshaya shkola.

6. Rozental',D.E., & Golub, B.I. (2003). *Russkij yazyk. Orfografiya i punktuaciya* [Russian language. Orthography and punctuation]. Moscow: Ajris-Press.

7. Yang, L. (2009) The grammar and semantics of punctuation - a functional approach (Order No. 10454399). Available from ProQuest Dissertations & Theses Global. (1869148651). [Online]. URL: https://www.proquest.com/ dissertations-theses/grammar-semantics-punctuation-functional-approach/docview/ 1869148651/se-2 (Date of Access: 18.11.2023)

8. Karimov, S.A. (2022). *O'zbek tilida tinish belgilari stilistikasi* [Stylistics of punctuation in the Uzbek language. Monograph]. Samarkand: Fan bulog'i.

9. Kim, I. E. (2019). *Teoriya russkoj punktuacii: prostranstvo znaka i prostranstvo teksta* [Theory of Russian punctuation: the space of the sign and the space of the text]. Novosibirsk: Institut filologii SO RAN.

10. Tiskova, O.V. (2002). Russkaya punktuaciya kak kommunikativnyj feno men (k postanovke problemy) [Russian punctuation as a communicative phenomenon (problem statement)]. In: Estestvennaya pis'mennaya russkaya rech': issledovatel'skij i obrazovatel'nyj aspekty [Natural written Russian speech: research and educational aspects]. Materialy konferencii. Barnaul: Izd-vo AltGU. Pp. 288-294.

11. Golev, N.D. (2005). *Kommunikativnye problemy russkoj punktuacii* [Communicative problems of Russian punctuation]. In: Yazyk i istoriya: Mezhdunarodnyj sbornik nauchnyh trudov [Language and history: International collection of scientific papers]. Glazov: GPI. Pp. 28-237.

12. Védénina, L.G. (1980). *La triple fonction de la ponctuation dans la phrase: syntaxique, communicative et sémantique. In: Langue française, n 45, 1980. La ponctuation.* Pp. 60-66. [Online]. URL: https://doi.org/10.3406/lfr.1980.5265 (Date of Access: 08.01.2024)

13. Grigoryan, L.T. (1982). *Obuchenie punktuacii v srednej shkole* (*Metodicheskoe issledovanie*) [Teaching punctuation in secondary school (Methodological study)]. Moscow: Pedagogika.

14. Petit, A. (2003). The Stylish Semicolon: Teaching Punctuation as Rhetorical Choice. *The English Journal*. 92(3). 66-72.

15. Sigal, K.Ya. (2022). Istoki psiholingvisticheskogo podhoda k punktuacii [Origins of the psycholinguistic approach to punctuation]. *Vestnik Udmurtskogo universiteta. Seriya Istoriya i filologiya.* 32(3). 529-536.

16. Granik, G. G. (1975). Psihologicheskie principy postroeniya shkol'nogo kursa sintaksisa i punktuacii russkogo yazyka [Psychological principles of constructing the school course of syntax and punctuation of the Russian language: abstract of doctoral dissertation in psychology]. Abstract of the dissertation for Doctor of pedagogical Sciences. Moscow: NII obshchej i pedagogicheskoj psihologii APN SSSR.

17. Rault, J. (2014). La ponctuation: problématiques linguistiques. *Le français aujourd'hui*. 187(4). 9-18.

18. Kim, I.E. (2000). Punktuacionnye znaki v pis'mennoj forme sovre mennogo russkogo yazyka: oznachayushchee i oznachaemoe [Punctuation marks in the written form of modern Russian: the signifier and the signified]. In: I.A.Boduen de Kurtene. Uchenyj. Uchitel'. Lichnost' [I.A.Baudouin de Courtenay. Scientist. Teacher.Personality]. Conference proceedings. Krasnoyarsk: Krasnoyarsk University. Pp. 95-104.

19. Kim, I. E. (2019). Sovremennaya russkaya punktuaciya kak znakovaya sistema [Modern Russian punctuation as a sign system]. *Kritika i semiotika*, 2, 302–318.

20. Arrivé, M. (2004). Modestes remarques sur le statut sémiotique du signe de ponctuation. In: La ponctuation à l'aube du XXIe siècle: théories et pratiques. Paris: Honoré Champion.19-44.

21. Nashkhoeva, M.R. (2011). Vzaimodejstvie punktuacionnyh znakov i emotikonov v tekstah forumov [Interaction of punctuation marks and emoticons in forum texts]. *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. Seriya: Filologiya i iskusstvovedenie*. 12. Pp. 321-327.

22. Crystal, D. (2016). *Making a point. The pernickety story of English punctuation*. London: Profile Books.

Muallif haqida ma'lumot:

RAYIMBERDIYEVA Zulfiya Rahmonberdiyevna – Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: zrayimberdiyeva@gmail.com